

## TURIZM SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN VA KELAJAKDA AMALGA OSHIRILISHI KERAK BO'LGAN ISHLAR TAHLILI

*Magistrant: Shodiyeva Muhayyo Anvarovna*

*Professor: K.Xomitov*

*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada turizmni rivojlantirish uchun mamlakatda amalga oshirilgan va oshirilishi kerak bo'lgan ishlar, vazifalar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Turizm, turistik zonalar, iqtisodiy omillar, ekologik omillar.

**Аннотация:** В данной статье анализируются задачи и задачи, реализуемые в стране по развитию туризма.

**Ключевые слова:** Туризм, туристские зоны, экономические факторы, экологические факторы.

**Abstract:** This article analyzes the tasks and objectives being implemented in the country for the development of tourism.

**Key words:** Tourism, tourist areas, economic factors, environmental factors.

Turizm yo'nalishiga qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish, xususi sektor uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali turizm infratuzilmasini yanada takomillashtirish, aholi bandligini oshirish, transport qatnovi yo'nalishlarini kengaytirish, respublikaning turistik salohiyatini ichki va tashqi bozorlarda targ'ib qilishni jadallashtirish, shuningdek, sohani davlat tomonidan boshqarishda yangi tartib-taomillarni joriy qilish maqsadida Respublikaga turistlar oqimini oshirish va turoperatorlarga davlat tomonidan qo'shimcha ko'maklar ko'rsatish maqsadida 2024-yil 1-yanvardan boshlab, turoperatorlar tomonidan turistik oqim past bo'lgan xorijiy mamlakatlardan O'zbekiston Respublikasiga olib kelingan har bir turist uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti va Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan teng ulushlarda 20 AQSh dollaridan 100 AQSh dollarigacha bo'lgan ekvivalentda rag'batlantiruvchi subsidiyalar ajratildi.

Turoperatorlar va aviatashuvchilarning xorijiy mamlakatlardan Samarqand, Buxoro va Urganch xalqaro aeroportlariga amalga oshirilgan charter aviaqatnovlari bo'yicha xarajatlarining bir qismi har bir xorijiy turist uchun, u respublika hududida kamida besh kecha tunab qolgan taqdirda, 20 AQSh dollari, qish mavsumida (20-noyabrdan 20-fevralgacha) esa 50 AQSh dollari ekvivalentida O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti va Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan teng ulushlarda qoplab berildi. Shuningdek, mehmonxonalar sonini va ularda xizmat ko'rsatish sifatini oshirishni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-

quvvatlash maqsadida 2024-yil 1-yanvardan boshlab, yulduzli toifa uchun 60 ta xonadan kam bo‘lmagan, 4 va 5 yulduzli toifa uchun 120 ta xonadan kam bo‘lmagan xonalar fondiga ega besh qavatdan past bo‘lmagan mehmonxona 2026-yil 31-dekabrga qadar foydalanishga topshirilgan taqdirda, mehmonxona toifasi tasdiqlangach, investorlarning yangi mehmonxonani qurish (rekonstruksiya qilish bundan mustasno) va jihozlash uchun ketgan xarajatlarining bir qismini O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan quyidagi miqdorlarda qoplab berish tizimi joriy qilindi, 3 yulduzli toifaga ega mehmonxonalardagi har bir xona uchun 40 million so‘m, 4 va 5 yulduzli toifaga ega mehmonxonalardagi har bir xona uchun 65 million so‘m miqdorida mablag‘lar berilmoqda.

Jumladan, 2024-yil 1-yanvardan boshlab nogironligi bo‘lgan shaxslarning sayohat qilishlari uchun qulay muhit yaratishga qaratilgan “To‘siqsiz turizm” dasturi amalga oshirishi yo‘lga qo‘yildi. Bunda, har yili “Sayohat barcha uchun!” loyihasi doirasida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida ming nafardan nogironligi bo‘lgan shaxslarning respublikaning turizm salohiyati yuqori bo‘lgan shaharlariga bepul sayohatlari tashkil qilinishi tashkillashtiriladi.

Shuningdek, rejaga muvofiq, 2026-yil 1-iyulga qadar yetib borish qiyin bo‘lgan va chekka joylarda (aholi yashash punktlaridan kamida 10 km yoki qattiq qoplamali avtomobil yo‘llaridan 5 km uzoqlikda) alohida avtonom infratuzilmani yaratgan holda kempinglar tashkil etgan va “safari” turizmi xizmatlarini ko‘rsatadigan yuridik shaxslarning mazkur faoliyat turi bo‘yicha mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i hamda foyda solig‘i stavkalari ushbu soliqlar bo‘yicha hisoblangan summaning 1 foizi miqdorida belgilangan.

Shunday tartib o‘rnatilib, unga muvofiq turizm yo‘nalishida xalqaro talablarga javob beradigan malakali kadrlar tayyorlash va mutaxassislar malakasini oshirish tizimini joriy etish maqsadida, malakali kadrlar tayyorlash yo‘nalishida xalqaro darajada tan olingan ta‘lim dasturlarini “franshiza” asosida jalb qilish yo‘lga qo‘yildi, hamda oliy ta‘lim dasturlari jahon reytingida birinchi 100 talikka kiruvchi nufuzli oliy ta‘lim tashkilotlarining ta‘lim dasturlari asosida qayta ko‘rib chiqilib, ta‘lim yo‘nalishlari birlashtirildi.

2023/2024 o‘quv yilidan boshlab har yili “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetiga Shanxay hamkorlik tashkiloti va Turkiy davlatlar tashkilotiga a‘zo mamlakatlar hamda Buyuk ipak yo‘lida joylashgan davlatlar fuqarolari magistraturada davlat granti asosida ta‘lim olishlari uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan 10 milliard so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda mablag‘lar ajratib boriladi.

Shu bilan bir qatorda 2024 yil dasturi doirasida Navoiy viloyatida turizmni rivojlantirish uchun Qiziltepa tumanida loyiha qiymati 30 mln AQSH dollarini tashkil

etadigan “To‘dako‘l” turistik-rekreatsion zonasini tashkil etish hamda suvda dam olish va sohil bo‘yi (plyaj) turizmini rivojlantirish loyihalarini amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Bu loyiha ishga tushishi bilan hududdagi bir ming ikki yuz nafar insonlar ish bilan band bo‘lishi ko‘zda tutilgan.

Ikkinchi yirik loyiha sifatida esa Karmana tumani hududidagi Yo‘lbo‘yi **infratuzilmasi** hisoblangan zamonaviy “Karvonsaroy majmuasi”ni tashkil etish nazarda tutilgan bo‘lib, loyiga qiymati 5 mln AQSh dollarini tashkil etadigan mazkur loyiha ishga tushishi natijasida aholining 50 nafarga yaqini doimiy ish bilan band etilishini ko‘zda tutgan.

Kelgusida Respublikada turizm infratuzilmasidagi mavjud muammolarni hal etish, sohada taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va jahon bozorlarida milliy turizm mahsulotlarini faol targ‘ib qilish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, nogironligi bo‘lgan shaxslarning turizm infratuzilmasi va madaniy meros obyektlarida erkin harakatlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta‘minlash hamda turizm barcha fuqarolar uchun teng imkoniyatlar yaratishni nazarda tutuvchi to‘siqsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish ushbu sohadagi eng dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

#### **Adabiyotlar:**

1. Ibadullayev N.E. Xorijiy turistlarga turistik xizmatlarni tashkil etish. Ma‘ruzalar matni. -Samarqand, SamISI, 2011. - 162 b.
2. Ibadullayev N.E. O‘zbekistonning turistik resurslari. Ma‘ruzalar matni. – Samarqand: SamISI, 2008. - 15 b.
3. Kamilova F.K., Ro‘ziyev S.S. Turizm marketingi. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2007.
4. Kamilova F., Nurmuhamedova M. Mehmonxona va restoran xo‘jaligi marketingi. – T., 2002.
5. Mamatqulov X.M. Turizm va servisga oid atamalar hamda iboralar izohli lug‘ati. – Samarqand, 2010.